

“BOYSUN BAHORI” KECHA VA BUGUN***Ikromov Azizbek Akmal o'g'li****Termiz Davlat Universiteti**Miliy libos va san'at fakulteti**Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish**3- kurs talabasi*

Tayanch so'zlar: Boysun bahori, Padang qishlog'I, Padang qishlog', "Alpamish" Festival, Pandemiya.

Annotatsiya: Maqolamizda yurtimizning folklor san'atini namoyon qilishni, Surxondaryo viloyati Boysun madaniy muhitida urf –odat va an'analarni yanada rivojlantirib Milliyligimizni yurtdoshlarimiz balki xorijiy davlatlarga ham ko'rsatish haqida va "Boysun bahori"ning kecha va buguni haqida to'xtaliladi

Boysun bahori – O'zbekistonning Surxondaryo viloyati Boysun tumani Padang qishlog'ida an'anaviy tarzda aprel—may oylarida o'tkaziladigan xalqaro ochiq folklor festivali. Ushbu festival UNESCO shafeligiga olingan.

2001-yilda UNESCO tomonidan Boysun madaniyati insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonasi deb e'tirof etilganidan. Bunda Boysun 19 ta nominatsiya bo'yicha jahon hamjamiyatining madaniy merosi ob'ektlari orasidan tanlab olingan. 2008-yilda UNESCOning Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxatiga kiritilgan

Ilk bor 2002-yil may oyida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston xalq ijrochilarining ilk ochiq folklor festivali bo'lib o'tgan. Nafaqat o'zbekistonliklarning, balki xorijliklarning ham e'tiborini tortgan festival 2005-yilga kelib ayrim sabablarga ko'ra to'xtab qolgan va 11 yil davomida o'tkazilmagan. Lekin 2016-yildan e'tiboran qayta o'tkazila boshlangan. Pandemiya davrida, ya'ni 2020—2021-yillar oralig'ida takror to'xtatilgan. 2022-yildan boshlab har ikki yilda bir marta tashkillashtiriladigan bo'ldi.

Boysun oddiy shaharcha bo'lib, u Boysuntog' tog'lari etagida joylashgan. Uning asosiy xususiyati shundaki, mahalliy aholi ming yildan ortiq davom etgan va Islomgacha bo'lgan butparastlik madaniyatidan kelib chiqqan qadimiy urf-odat va an'analarni saqlab kelgan. Ming yil muqaddam bu yerda oqinlar "Alpamish" qahramonlik dostonini yaratishgan. Boysun o'ziga xos musiqa madaniyatiga ham ega bo'lib, ko'plab marosimlar, musiqa va raqslari bilan ajralib turadi.

Festivalda O'zbekistonning turli hududlarida faoliyat yuritadigan folklor jamoalarning 200 dan ortiq vakili o'z hududlariga xos libos va qadimiy kuy-qo'shiqlar bilan ishtirok etadilar. Uni tashkil qilish jarayonida Padang qishlog'ida 100 dan oshiq o'tov tikiladi va qo'rg'onlar barpo etiladi. Kurash uchun alohida joy hozirlanib, Respublikadan hakamlar taklif etiladi Bundan tashqari milliy kurash musobaqasi, etnosport, velomarofon, uloq-ko'pkari, varrak uchirish, arqon tortish, chillak, xo'roz urishtirish va boshqa xalq o'yinlari ham o'tkaziladi. Folklor san'ati — alla, o'lan, lapar, raqs, terma, marosim singari qo'shiqlar va milliy xalq o'yinlari, tomosha san'ati nominatsiyalari bo'yicha o'tkaziladigan festivalda xorijiy davlatlar vakillari ham ishtirok etishlari mumkin. Bunga yaqqol misol sifatida 2022-yilda Tojikiston va Afg'onistondan kelgan hunarmandlarni aytish mumkin. Festival



Impact Factor: 9.9**ISSN-L: 2544-980X**

soʻngida eng yaxshi folklor-etnografik va eng yaxshi oʻtov-uy oʻrnatgan jamoalar, sport va xalq oʻyinlari gʻoliblari taqdirlanadi.

„Boysun bahori“ xalqaro folklor festivaliga tayyorgarlik koʻrish boʻyicha tashkiliy qoʻmita tarkibi va uni oʻtkazish tartibi toʻgʻrisidagi nizom tasdiqlangan. Unda festivalni oʻtkazish shartlari, jumladan, folklor jamoalari tomonidan xalq amaliy sanʼati yoʻnalishi boʻyicha 12 nafar, milliy oʻyinlar va tomoshalar yoʻnalishi boʻyicha 4 nafardan koʻp boʻlmagan dastur ijrosiga qoʻyiladigan talablar belgilangan. Shuningdek, 9—11 nafar yetakchi ekspertlardan iborat hakamlar hayʼati tomonidan festival ishtirokchilarini 10 balli tizimda baholash mezonlari va gʻoliblarni aniqlash tartibi belgilab olingan.

Festivalni tashkil etish va oʻtkazish bilan bogʻliq xarajatlar Surxondaryo viloyati hokimligi va Madaniyat vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan smeta asosida shakllantiriladi: 30 foizi — respublika byudjetidan Madaniyat vazirligiga madaniy tadbirlar oʻtkazish uchun ajratiladigan mablagʻlar hisobidan; 70 foizi — Surxondaryo viloyati mahalliy byudjetining qoʻshimcha manbalari, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablagʻlari, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan. Ushbu festival doirasida bir necha yillar davomida ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etilgan. Unga Xitoy, Chexiya, Janubiy Koreya, Qozogʻiston, Yaponiya, Rossiya, Fransiya va boshqa bir qator mamlakatlardan olimlar ishtirok etishgan. Ilmiy konferensiya va forumlarda ishtirok etgan olimlar va hunarmandlar 50 ga yaqin yodgorliklarni aniqlashgan. Bundan tashqari UNESCO homiyligida amalga oshirilgan xalqaro ekspeditsiyada sanʼatshunos olimlar tomonidan 100 ga yaqin ijrochilik sanʼatiga doir namunalarni — dostonlar, laparlarni va xalq qoʻshiqlari yozib olingan.

2024-yil „Boysun bahori“ ochiq folklor festivali uchun dunyodagi eng katta soʻzana tikilgan. Boysunlik xunarmandlar tomonidan tikilgan soʻzaning uzunligi 31 metr, eni 5,2 metrni tashkil qiladi. Shuningdek, har ikki yilda bir marta anʼanaviy ravishda ikki kun oʻtkaziladigan festival ushbu yilda bir hafta davom etgan. „Bibishirin“ mahallasida festival uchun alohida dekoratsiya qilingan. Bundan maqsad boshqa davlatlardan keladigan mehmonlarni voha aholisining madaniy hayoti, turmush tarzi va milliy qadriyatlari bilan yaqindan tanishtirish boʻlgan.

Mukofotlanganlar roʻyxati

"Boysun bahori 2018" — xalqaro folklor festivalida mukofotlanganlar roʻyxati:

Egallagan oʻrni Jamoa nomi Qaysi viloyatdan

1-oʻrin „Boysun“ folklor-etnografik jamoasi Oʻzbekiston (Surxondaryo viloyati)

2-oʻrin „Bes perde“ folklor ansambli

„Bogʻdon gullari“ folklor ansambli

„Xorazm“ folklor ansambli

Qoraqalpogʻiston

Oʻzbekiston (Jizzax viloyati)

Oʻzbekiston (Xorazm viloyati)



3-o‘rin „Qurama“ folklor ansanbli

„So‘x chashmasi“ folklor ansanbli

„Sirdaryo navolari“ folklor-etnografik jamoasi

O‘zbekiston (Toshkent viloyati)

O‘zbekiston (Farg‘ona viloyati)

O‘zbekiston (Sirdaryo viloyati)

Festival jarayonida polvonlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan kurashda Termiz tumanidan bo‘lgan Samijon Ubaydullayev g‘oliblikni qo‘lga kiritib, Nexia avtomobili bilan taqdirlangan.

Festival sanalari

2002-yil — may

2017-yil — 13—14-may

2018-yil — 28—29-aprel

2019-yil — 27—28-aprel

2020—2021-yillar — Pandemiya sabab o‘tkazilmagan.

2022-yil — 7—8-may

2024-yil — 1—7-may, „Bibishirin“ mahallasi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam Bundan maqsad boshqa davlatlardan keladigan mehmonlarni voha aholisining madaniy hayoti, turmush tarzi va milliy qadriyatlari bilan yaqindan tanishtirish bo‘lgan.

FOYDAKANILGAN MANBALAR

“Boysun bahori”: Xalqaro tanlov g‘oliblari aniqlandi“. kknnews.uz. Qaraldi: 6-aprel 2024-yil.

Horning, Nicole; Knowlton, Mary Lee. Cultures of the world Uzbekistan. New York: Cavendish Square Publishing, 2021 — 123 bet. ISBN 9781502658791. 5-aprel 2024-yilda qaraldi.

„Cultural Space of Boysun“. ich.uz. Qaraldi: 5-aprel 2024-yil.

„7-8-may kunlari Surxondaryoda “Boysun bahori” ochiq folklor fes

